

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 7



@QMI_Institut



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
7-son
dekabr, 2025

December 2025
Volume 3
Number 7

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

*Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda
jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.*

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

"Innovatsion iqtisodiyot" ilmiy - amaliy
O'zbekiston elektron jurnali ta'lim, fan va
innovatsiyalar Respublikasi Oliy vazirligi
huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi**
rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli
qarori bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

**Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar
nashr etiladi:**

1. Raqamli iqtisodiyot
2. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
4. Inson kapitali iqtisodiyoti
5. Menejment va marketing
6. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
7. Moliya, kredit va investitsiya
8. Ekonometrika va statistika
9. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

*Ovchinikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal
Universitet, Rossiya)*

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

*Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog'iston Respublikasi
Milliy fanlar akademiyasi)*

*Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi
Tojikiston agrar universiteti)*

*Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva
energetika instituti, Rossiya)*

*Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar
do'stligi universiteti)*

*Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya
Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)*

*Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti,
Rossiya Federatsiyasi hukumati)*

*Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi
Milliy fanlar Akademiyasi)*

*Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati
huzuridagi Moliya universiteti)*

*Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat
universiteti)*

*Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati
huzuridagi Moliya universiteti)*

*Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi
Rossiya xalqlar do'stligi universiteti)*

*Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar
universiteti)*

*Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati
huzuridagi Moliya universiteti)*

*Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati
huzuridagi Moliya universiteti)*

*Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazarot
fanlari instituti)*

*Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot
universiteti)*

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ojs.qmii.uz

Zamonaviy tijorat banklari tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmalari

Abdurashidova M.Q., Ilmiy rahbar: Karimova A.M.

Механизмы финансирования инвестиционных проектов современными коммерческими банками

Абдурашидова М.К., Научный руководитель: Каримова А.М.

Mechanisms of financing investment projects by modern commercial banks

Abdurashidova M.K., Academic Supervisor: Karimova A.M.

Received: December 11, 2025 Revised: December 16, 2025

■ Accepted: December 19, 2025 ■ Published Online: December 30, 2025

- **Annotatsiya.** Maqolada zamonaviy tijorat banklarining investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi o'rni, moliyalashtirish mexanizmlarining tuzilishi va ularning amaliy samaradorligi tahlil qilingan. Investitsion kreditlar dinamikasi, risklarni baholash usullari, loyiha monitoringi va moliyaviy instrumentlar qo'llanilishi o'rganilgan. Tadqiqot natijalari banklar tomonidan investitsion faoliyat kengayib borayotganiga qaramay, ekspertiza jarayonlarining sekinligi, raqamli platformalar yetishmasligi va project-finance amaliyotining cheklanganligi kabi tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Maqola moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.
- **Kalit so'zlar:** tijorat banklari, investitsion loyiha, moliyalashtirish mexanizmi, investitsion kreditlar, risk-menejment, project finance, sindikatlashgan kreditlash, raqamli moliya, monitoring, iqtisodiy samaradorlik.
- **Аннотация.** В статье рассматриваются механизмы финансирования инвестиционных проектов современными коммерческими банками, анализируется их структура, принципы функционирования и практическая эффективность. Изучены динамика инвестиционных кредитов, методы оценки рисков, инструменты финансирования и системы мониторинга проектов. Результаты исследования показывают, что, несмотря на рост доли инвестиционных кредитов, сохраняются системные проблемы, связанные с длительностью экспертизы, недостаточной цифровизацией процессов и ограниченным применением проектного финансирования. Работа направлена на разработку научно-практических рекомендаций по повышению эффективности механизмов финансирования.
- **Ключевые слова:** коммерческие банки, инвестиционный проект, механизмы финансирования,

инвестиционные кредиты, управление рисками, проектное финансирование, синдицированное кредитование, цифровые финансовые технологии, мониторинг, экономическая эффективность.

- **Abstract.** The article examines the mechanisms of financing investment projects by modern commercial banks, focusing on their structural features, operational principles, and practical efficiency. The study analyzes the dynamics of investment lending, risk assessment methods, financing instruments, and project monitoring systems. The findings indicate that although investment activity in the banking sector is expanding, several systemic issues remain, including lengthy expertise procedures, insufficient digitalization, and limited use of project finance models. The article provides scientific and practical recommendations for improving investment financing mechanisms.
- **Keywords:** commercial banks, investment project, financing mechanisms, investment loans, risk management, project finance, syndicated lending, digital finance, monitoring, economic efficiency.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi, industrial rivojlanish va texnologik yangilanish darajasi ko'p jihatdan investitsion faoliyatning samaradorligiga bog'liq. Investitsion jarayonda tijorat banklari markaziy o'rin egallaydi, chunki ular moliyaviy resurslarni jamlash, qayta taqsimlash va yuqori qiymat yaratadigan loyihalarga yo'naltirish imkoniyatiga ega.

Zamonaviy tijorat banklarining faoliyatida investitsion loyihalarni moliyalashtirish nafaqat korporativ mijozlar rivojlanishiga xizmat qiladi, balki mamlakat iqtisodiy xavfsizligi, sanoat diversifikatsiyasi va innovatsion salohiyatning oshishiga ham ta'sir ko'rsatadi. SHu bois, bank amaliyotida investitsion loyihalar bilan ishlash jarayonlarini takomillashtirish, risklarni ilg'or modellar asosida baholash, raqamli texnologiyalardan foydalanish va proekt-finans standartlarini joriy etish muhim strategik vazifalar qatoriga kiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Investitsion loyihalarni banklar tomonidan moliyalashtirish masalasi xalqaro iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. Masalan, F. Mishkin [1] banklar aktivlarining diversifikatsiyasi va investitsiya risklarini boshqarish mexanizmlarini nazariy jihatdan asoslab bergan. R. King va D. Levin [2] moliyaviy tizim rivoji investitsiya faolligi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni e'tirof etgan.

T. Kouplend [3] va R. Breyli [4] kabi olimlar investitsion loyihalarni baholashda NPV, IRR, PI kabi moliyaviy ko'rsatkichlarning ilmiy-amaliy ahamiyatini ochib bergan. Shu bilan birga, bank risklarini boshqarish borasida D. Daymond va R. Radjanning tadqiqotlari muhim hissa qo'shgan.

Mamlakatimiz olimlari orasida A. Vaxobov, Sh. Abdullaeva [5], M. Rahimqulov, U. Mamasoliev [6], F. Yakubov kabilar tijorat banklarining investitsion faoliyatga jalb etilishi,

moliyalashtirish mexanizmlari, kredit portfelli tarkibi va tavakkalchiliklar tizimi borasida ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqqan.

Biroq zamonaviy tijorat banklarining investitsion loyihalarni amalga oshirishidagi aniq mexanizmlar tahlili, risklarni boshqarish innovatsiyalari va loyihaviy moliyalashtirishni raqamlashtirishga oid tadqiqotlar yetarli darajada to'liq yoritilmagan. Bu holat mavzuning ilmiy yangiligini belgilaydi.

TADVIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda Investitsion jarayonlarning dinamik xususiyatlarini, bank amaliyotidagi o'zgarishlarni tizimli tahlil jaraenida dialektik usulidan, banklarning investitsion portfelli tuzilmasi, mablag'lari yo'nalishlari, risklar darajasini baholashda iqtisodiy-statistik usullardan, solishtirma tahlil, monografik tahlil, abstrakt-mantiqiy usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarining investitsion loyihalari — bu bank tomonidan o'z mablag'lari yoki jalb qilingan resurslar hisobidan iqtisodiyotning real sektori, infratuzilma, innovatsion texnologiyalar, ishlab chiqarish quvvatlari, xizmat ko'rsatish sohasi hamda boshqa sohalarida barqaror qiymat yaratishga qaratilgan uzoq muddatli investitsiya tashabbuslarini moliyalashtirish, baholash, monitoring qilish va boshqarish jarayonidir.

Ilmiy nuqtai nazardan, ushbu tushuncha quyidagi tarkibiy unsurlarni o'z ichiga oladi:

1. Kapital qo'yilmalar mohiyati – bu investitsion loyiha bank uchun moliyaviy resurslarni o'sish potentsiali yuqori bo'lgan aktivlarga joylashtirishni anglatadi. Bunda asosiy maqsad — bankning rentabelligini oshirish va iqtisodiy rivojlanish jarayoniga hissa qo'shishdir.
2. Strategik xarakter - bank investitsion loyihalarni tanlashda davlatning iqtisodiy ustuvorliklari, tarmoqlar bo'yicha

rivojlanish strategiyasi va korxonalarning innovasion salohiyatini hisobga oladi. Shuning uchun bunday loyihalar tez foyda emas, balki uzoq muddatli barqarorlikka qaratiladi.

3. Risklarni baholash va boshqarish. Tijorat banklari investitsion loyihalar bo'yicha: kredit riski, likvidlik riski, foiz stavkasi riski, bozor riski, operatsion va texnologik isklarni baholaydi. Bu risklar investitsion faoliyatning ajralmas qismi hisoblanadi.

4. Moliyalashtirish mexanizmlari. Investitsion loyihalar bank tomonidan quyidagi shakllarda qo'llab-quvvatlanadi: uzoq muddatli kreditlar, lizing va faktoring vositalari, sindikatlashgan kreditlar, loyiha moliyalashtirish (project finance), davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalar.

5. Iqtisodiy-ijtimoiy samaradorlik. Bank investitsion loyihani faqat moliyaviy foyda nuqtai nazaridan emas, balki: yangi ish o'rinlari yaratish, mahalliy ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, eksport salohiyatini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish kabi ko'rsatkichlar asosida ham baholaydi.


6. Monitoring va nazorat tizimi. Loyiha amalga oshirilish jarayonida bank: moliyaviy intizomni, resurslardan maqsadli

foydalanishni, qurilish-montaj ishlarining grafigini, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi va sotuvini doimiy nazorat qiladi. Zamonaviy tijorat banklari investitsion loyihalarga nisbatan faqat kredit beruvchi emas, balki: texnik-iqtisodiy asoslashni ekspertizadan o'tkazuvchi, risklarni boshqaruvchi professional institut, kapital oqimlarini taqsimlovchi moliyaviy vositachi, loyiha monitoringini amalga oshiruvchi nazorat organi sifatida faoliyat yuritadi.

Bank amaliyotida investitsion loyihalarning hajmi, muddati, risk darajasi yuqori bo'lgani uchun banklar murakkab, ko'p bosqichli mexanizmlarni qo'llashga majbur.

Investitsion loyihalarni moliyalashtirish — bu loyihaning hayotiy tsikli davomida zarur bo'lgan kapital resurslarini aniqlash, jalb qilish, taqsimlash va ulardan samarali foydalanilishini ta'minlashga qaratilgan moliyaviy-iqtisodiy jarayonlar majmuasidir. U iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, infratuzilmani rivojlantirish hamda innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashning asosiy vositasi hisoblanadi.

Investitsion loyihalarni moliyalashtirish bir necha manbalar orqali amalga oshiriladi (1-rasmga qarang)



1-rasm. Investitsion loyihalarni moliyalashtirish manbalari

Investitsion loyihalarni moliyalashtirish bank faoliyatining eng murakkab va riskli yo'nalishlaridan biri bo'lib, u quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Loyihani dastlabki saralash. Bank biznes-reja, bozor tahlili, texnologiya tavsifi va moliyaviy rejalar asosida dastlabki ekspert xulosasini shakllantiradi.

2. Iqtisodiy va moliyaviy ekspertiza. — NPV, IRR, PB, PI kabi ko'rsatkichlar hisoblanadi; — prognozashtirilgan pul oqimlarining barqarorligi baholanadi.

3. Risklarni kompleks baholash. Investitsion loyihaga

xos bo'lgan kredit, bozor, inflyasiya, valyut, texnik va ekologik risklar tahlil qilinadi.

4. Moliyalashtirish modeli va tuzilmasini belgilash. Bank qarz, lizing, subsidiyalashgan kredit, sindikatlashgan moliyalashtirish yoki proekt-finans orqali resurs ajratadi.

5. Monitoring va nazorat. Loyiha bosqichma-bosqich monitoring qilinadi, qurilish jarayoni, asbob-uskuna xaridlari, texnologik jarayonlar kuzatiladi.

Tadqiqotimiz jarayonida biz investitsion loyihalar bo'yicha tijorat banklari amaliyotini tahlil qildik (1-jadvalga qarang).

Tijorat banklarining investitsion kredit portfeli dinamikasi (2021–2024 y.)

YIL	INVESTITSION KREDITLAR HAJMI (TRLN SO'M)	O'SISH SUR'ATI (%)	INVESTITSION KREDITLAR ULUSHI (UMUMIY KREDIT PORTFELIDA, %)
2021	48.2	–	17.3
2022	55.7	15.6	18.9
2023	63.4	13.8	19.7
2024	78.9	24.5	22.1

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2021–2024 yillar davomida tijorat banklari investitsion kreditlar hajmini yillik o'rtacha 18%ga oshirgan. 2024 yilda keskin o'sish (24.5%) islohotlar va infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirish faollashganligini ko'rsatadi. Investitsion kredit ulushining 17.3%dan 22.1%gacha o'sishi banklar investitsion faoliyatga e'tiborni kuchaytirganini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, so'nggi yillarda tijorat banklarida investitsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonida investitsion kreditlar ulushi muayyan darajada o'sgan bo'lishiga qaramay, amaliyotda bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Bu kamchiliklar moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, loyihalarning o'z vaqtida amalga oshirilishi va kutilgan iqtisodiy natijalarga erishilishini cheklab qo'yadi. Jumladan:

- ekspertiza jarayonlari vaqtincha uzoq va hujjatlar aylanishi samarasiz;
- risklarni baholash ko'p hollarda an'anaviy metodlar bilan amalga oshiriladi;
- raqamli platformalar va avtomatlashtirilgan tizimlar etarlicha joriy etilmagan;
- proekt-finans va sindikatlashtirilgan kreditlash amaliyoti cheklangan;
- loyihalar bo'yicha real vaqtda monitoring mexanizmi yo'lga qo'yilmagan;
- ESG va "yashil" moliyalashtirish talablariga mos uslublar ishlab chiqilmagan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy tijorat banklari iqtisodiyotda investitsion faollikni rag'batlantiruvchi asosiy institutlardan birisifatida strategik ahamiyat kasbetadi. Investitsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarining takomillashuvi nafaqat bank kapitalining samarali joylashuvini, balki milliy iqtisodiyotning tarkibiy yangilanishi,

innovatsion salohiyatning o'sishi va raqobatbardosh ishlab chiqarishni shakllantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

2021–2024 yillar davomida investitsion kreditlar hajmi va ulushining barqaror o'sishi bank sektorida investitsion faoliyat kengayotganini tasdiqlasa-da, amaliyotda saqlanib kelayotgan tizimli muammolar moliyalashtirish mexanizmlarining to'liq samara berishini cheklab qo'rmoqda. Xususan, ekspertiza jarayonlarining sekinligi, risklarni baholashda an'anaviy yondashuvlarga tayanish, raqamli infratuzilmaning etarlicha rivojlanmagani, proekt-finans va sindikatlashgan kreditlash kabi ilg'or moliyalashtirish modellarining cheklangan qo'llanilishi – investitsion loyihalarni amalga oshirish sur'atini pasaytiradi.

Shuningdek, real vaqtda monitoring tizimlarining yo'qligi, ESG standartlari va "yashil" moliyalashtirish vositalariga mos uslublarning ishlab chiqilmagani banklar faoliyatida global trendlar bilan hamqadamlik darajasini kamaytiradi.

Ushbu holatlar tijorat banklari oldiga bir qator strategik vazifalarni qo'yadi. Jumladan:

- investitsion loyihalar ekspertizasini raqamlashtirish va avtomatlashtirish;
- risk-menejmentni zamonaviy modellar, stress-testlar va mashinali tahlil texnologiyalari asosida qayta shakllantirish;
- proekt-finans, sindikatlashgan moliyalashtirish va davlat-xususiy sheriklik instrumentlarini kengaytirish;
- monitoring tizimlarini IoT, big data va real-time reporting mexanizmlari asosida modernizatsiya qilish;
- ekologik va ijtimoiy talablarga mos "yashil" investitsiya standartlarini tatbiq etish.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarining investitsion loyihalarni moliyalashtirish borasidagi amaliyotini modernizatsiya qilish mamlakat iqtisodiyotida barqaror o'sish, sanoat diversifikatsiyasi va innovatsion faollikni kuchaytirishning muhim shartidir. Mavjud muammolarni bartaraf etish va zamonaviy moliyalashtirish mexanizmlarini kompleks joriy etish orqali investitsion loyihalarning

iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Abdurashidova M.Q. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti magistri / Абдурашидова М.К. Магистр Самаркандский институт экономики и сервиса / Abdurashidova M.K. Master's Degree, Samarkand Institute of Economics and Service
 ► mokhidilabdurashidova1@gmail.com
 ■ 0009-0001-6925-5699
2. Ilmiy rahbar: Karimova A.M. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti / Научный руководитель: Каримова А.М. Самаркандский институт экономики и сервиса / Academic Supervisor: Karimova A.M. Samarkand Institute of Economics and Service
 ► karimova.m@gmail.com
 ■ 0009-0004-4524-1125

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev, Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. O'zbekiston bank tizimi rivoji bo'yicha yillik hisobot. – T.: 2023. – 112

- b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-143-son Qarori "Bank-moliya tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish strategiyasi to'g'risida". – T.: 2022.
4. O'zbekiston Respublikasi "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. – T.: Adolat, 2021. – 48 b.
5. Mishkin, F. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. – New York: Pearson, 2018. – 712 p.
6. R. King va D. Levin «Finance and Growth: Schumpeter Might Be Right». Quarterly Journal of Economics, 1993.
7. Коупленд Т., Вестерфилд Р., Дж. М. Коллинз. «Финансовый менеджмент». – перевод с англ. – М.: Олимп-Бизнес, 2019.
8. Брейли Р., Майерс С., Аллен Ф. «Принципы корпоративных финансов». – М.: Вильямс, 2020.
9. Вахобов А., Абдуллаева Ш. «Банк иши ва молия бозорлари». – Т.: I.F.O., 2021.
10. Мамасолиев У. «Инвестицион жараёнлар ва банк амалиёти». – Т.: ТДИУ, 2022.
11. OECD. Investment Strategies and Financial Sector Development Report. – Paris: OECD Publishing, 2022. – 156 p.
12. World Bank. Financial Sector Assessment Program (FSAP). – Washington D.C., 2023. – 134 p.